

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FORUG' FARROHZOD SHE'RIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI VA "A SONG OF CAPTIVE BIRD" ROMANIDAGI POETIK TRANSFORMATSIYASI

Aminova Nilufar Bahriddinovna

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: nilufar0906@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8605-391X>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Eron shoirasi Forug' Farrohzod she'riyatining badiiy-estetik xususiyatlari amerikalik yozuvchi Jasmin Darznikning "Qafasdagi qush nidosi" (*Song of a Captive Bird*) romani kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida romanda intertekstual unsur tarzida qo'llanilgan, o'n to'rt she'rdan tanlab olingan o'n yettita poetik iqtibos xizmat qiladi. Maqolaning maqsadi Forug' she'riyatidagi qayta tug'ilish motivi, tutqunlik va ozodlik dialektikasi hamda tabiat unsurlarining ramziy tizimini mustaqil poetik hodisa sifatida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va intertekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijasida "Reborn", "The Gift", "I Will Greet the Sun Again" kabi she'rlar misolida Forug' poetikasining uch bosqichli strukturasi — yo'qotish, qayta birlashish va yangilanish bosqichlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: Forug' Farrohzod, she'riy poetika, ramziy timsollar tizimi, tutqunlik va ozodlik dialektikasi, intertekstuallik.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОЭЗИИ ФОРУ ФАРРОЗОДА И ПОЭТИЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В РОМАНЕ «ПЕСНЬ ПЛЕНЕННОЙ ПТИЦЫ».

Аминова Нилуфар Бахриддиновна

Бухарский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье художественно-эстетические особенности поэзии иранской поэтессы Форуг Фаррохзад анализируются в контексте романа американской писательницы Жасмин Дарзник «Песня пленённой птицы» (*Song of a Captive Bird*). Объектом исследования являются семнадцать поэтических цитат, отобранных из четырнадцати стихотворений и использованных в романе в качестве интертекстуальных элементов. Цель статьи заключается в анализе мотива возрождения, диалектики несвободы и свободы, а также символической системы природных образов в поэзии Форуг как самостоятельных поэтических явлений. В исследовании использованы сравнительно-типологический и интертекстуальный методы анализа. В результате на примере таких стихотворений, как «Reborn», «The Gift» и «I Will Greet the Sun Again», выявлена трёхступенчатая структура поэтики Форуг: утрата, воссоединение и обновление.

Ключевые слова: Форуг Фаррохзад, поэтика, система символических образов, диалектика несвободы и свободы, интертекстуальность.

ARTISTIC-AESTHETIC CHARACTERISTICS OF FORUGH FARROHZOD'S POETRY AND POETIC TRANSFORMATION IN THE NOVEL "A SONG OF CAPTIVE BIRD"

Aminova Nilufar Bahriddinovna

Bukhara State University, PhD Student.

Abstract.

This article analyzes the artistic and aesthetic features of the poetry of the Iranian poet Forugh Farrokhzad in the context of American writer Jasmin Darznik's novel *Song of a Captive Bird*. The study focuses on seventeen poetic quotations selected from fourteen poems and incorporated into the novel as intertextual elements. The aim of the article is to examine the motif of rebirth, the dialectic of captivity and freedom, and the symbolic system of natural imagery in Forugh's poetry as distinct poetic phenomena. Comparative-typological and intertextual methods of analysis are employed. Through an examination of poems such as "Reborn," "The Gift," and "I Will Greet the Sun Again," the study identifies a three-stage structure in Forugh's poetics: loss, reunion, and renewal.

Keywords: Forugh Farrokhzad, poetic aesthetics, system of symbolic images, dialectic of captivity and freedom, intertextuality.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida biografik roman janrining tobora ommalashib borayotgani sababli hozirgi kunda real tarixiy shaxslar, xususan, ijodkorlar hayotini badiiy vositalar orqali qayta tiklashga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunday janrda muallif oldida ikki muhim vazifa turadi: birinchidan, tarixiy haqiqatga sodiq qolish, ikkinchidan, qahramonning ichki dunyosini badiiy jihatdan jonli va ishonarli tarzda qayta yaratish. Jasmin Darznik ushbu ikki vazifani Forug' Farrohzod ijodidan olingan she'riy iqtiboslarni roman to'qimasiga singdirish orqali

muvaqqiyatli amalga oshiradi.

Forug' Farrohzod (1935–1967) XX asr Eron she'riyatining eng original va jasoratli ovozlari biri sifatida nafaqat fors adabiyotida, balki jahon ayol ijodkorlari orasida ham alohida o'rin egallaydi. Uning she'riyati shaxsiy iztirob, ijtimoiy tanqid va falsafiy chuqurlikni bir-biriga chambarchas bog'lagan holda, patriarxal jamiyat sharoitida ayol ovozinin shakllanish jarayonini o'zida mujassam etadi. Amerikalik yozuvchi Jasmin Darznikning "Qafasidagi qush nidosi" (*Song of a Captive Bird*) romani aynan shu ovozni biografik roman janri orqali qayta tiklashga bag'ishlangan bo'lib, muallif Forug' she'rilaridan olingan o'n yettita sitatani o'n to'rt she'rdan tanlab, ularni roman tarkibiga kiritadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot manbai sifatida Sholeh Wolpé tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan *Sin: Selected Poems of Forugh Farrokhzod* (2007) to'plamidagi she'rlar hamda Jasmin Darznikning *Song of a Captive Bird* (2018) romanidagi ularga tegishli iqtiboslar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida bir necha metodologik yondashuvdan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida Forug' she'riyatidagi asosiy motivlar — qayta tug'ilish, tutqunlik va ozodlik, tabiat unsurlari — o'zaro qiyoslandi va ularning tipologik umumiyliklari aniqlandi. J. Genetning transtekstuallik nazariyasiga tayangan holda intertekstual tahlil metodi qo'llanildi. Bu esa she'riy matnning "gipotekst" sifatida romanga ("gipertekst") qanday singdirilganini kuzatish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama

Forug' Farrohzod ijodida "Reborn" ("Qayta tug'ilish") she'ri alohida o'rin tutadi, chunki u shoiraning butun badiiy falsafasini — o'lim va tug'ilish, yo'qotish va yangilanish dialektikasini — o'zida mujassam etadi. She'rning dastlabki qatorlarida "shamol tomonidan olib ketilgan qiz" metaforasi orqali shoira o'zining beg'ubor yoshligidan ayolga aylanish jarayonini tasvirlaydi. Shamol obrazi bu yerda nazoratsiz, taqdirga bog'liq kuch sifatida ishlaydi: u qizlik olamidani ayollik olamiga o'tishning ixtiyoriy emas, balki tashqi kuchlar ta'sirida yuz bergan jarayon ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, jamiyat xotirasida shoira hali ham o'sha "beg'ubor qiz" sifatida qolib ketgani, uning haqiqiy, o'zgargan shaxsiyati esa jamoatchilik nigohidan yashiringani ta'kidlanadi. Bu Forug' she'riyatida keng tarqalgan "ikki xil o'zlik" muammasining ilk ifodasidir: biri jamiyat tasavvuridagi obraz, ikkinchisi shoiraning ichki, haqiqiy o'zligi.

She'rning keyingi qismida qayta tug'ilish g'oyasi muhabbat va tabiat unsurlari orqali chuqurlashtiriladi. "Dark chant" ("qorong'u qo'shiq") obrazi orqali shoira o'z mavjudligini ovoz, ya'ni poetik nutq bilan tenglashtiradi. "Graft" ("payvand qilmoq") fe'lining tanlanishi alohida ahamiyatga ega: u sevgi obyektini daraxt, suv va olov kabi tabiat unsurlariga "payvand qilish" orqali insoniy his-tuyg'uni kosmik va tabiiy sikl bilan bog'laydi. Bu Forug' she'riyatiga xos ramziy uslub bo'lib, unda shaxsiy kechinma doimo tabiat unsurlari orqali umumlashtiriladi va ular bilan uzviy bog'lanadi. She'rning yakuniy qismida esa umid va yangilanish g'oyasi qish va bahor ramzlari orqali ifodalanadi: "qor ostida ko'milgan qo'llar" obrazi vaqtincha yashiringan, ammo yo'qolmagan haqiqat g'oyasini anglatadi, "bahorning osmon bilan qo'shilishi" kabi jonlantirish (personifikatsiya) usuli orqali esa tabiat siklik yangilanish jarayoni sifatida talqin etiladi.

"Reborn" she'ri shu tariqa uch bosqichli poetik strukturaga ega: yo'qotish (yoshlikdan ajralish), muhabbat orqali qayta birlashish, umid va yangilanish. Ushbu uch bosqichli model Darznik romanida ham xuddi shu tartibda, qahramon hayotining uchta muhim burilish nuqtasida qo'llaniladi. "The Gift" ("Sovg'a") she'ri shoiraning eng og'ir hayotiy davri — ruhiy kasallar shifoxonasida yozilgan bo'lib, unda tutqunlik holati yorqin ramziy tilda ifodalanadi. She'rda uch asosiy ramziy obraz ishlaydi: "tun" (night) — yolg'izlik va ichki iztirobning umumiy ramzi; "chiroq" (lamp) — bilim, umid va ma'naviy yorug'lik istagi; "deraza" (window) — ikki dunyo, ya'ni ichki yopiq mavjudlik va tashqi erkin hayot o'rtasidagi chegara. "The fortunates" va "the ones outside" iboralari orqali shoira o'zini erkinlikdan mahrum, faqat uni kuzata oladigan, ammo unga erisha olmaydigan holatda tasvirlaydi. Bu she'r Forug' she'riyatidagi eng chuqur ekzistensial iztirob namunalaridan biri bo'lib, unda jismoniy tutqunlik ruhiy ozodlik istagi bilan keskin ziddiyatga kiradi.

Bunga qarama-qarshi o'laroq, "I Will Greet the Sun Again" ("Men yana quyoshni qarshilayman") she'rda ruhiy uyg'onish va hayotga qaytish g'oyasi ustuvorlik qiladi. Ushbu she'rda tabiat unsurlari — quyosh, oqim, bulutlar, teraklar — barchasi shoiraning ichki dunyosi bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta tiklanish jarayonini ifodalaydi. "Quyoshni qarshilash" metaforasi zulmatdan yorug'likka, tutqunlikdan ozodlikka o'tishning poetik ifodasidir. "The Gift" va "I Will Greet the Sun Again" she'rlari o'rtasidagi kontrast Forug' ijodiy yo'lining ikki qutbini — chuqur tushkunlik va ruhiy tiklanishni — yorqin aks ettiradi, bu esa uning she'riyatini statik emas, balki dinamik, transformatsion jarayon sifatida o'qishga imkon beradi.

"I Will Greet the Sun Again" ("Men yana quyoshni qarshilayman") she'rda ruhiy uyg'onish va hayotga qaytish g'oyasi ustuvorlik qiladi. Ushbu she'rda tabiat unsurlari — quyosh, oqim, bulutlar, teraklar — barchasi shoiraning ichki dunyosi bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta tiklanish jarayonini ifodalaydi. "Quyoshni qarshilash" metaforasi zulmatdan yorug'likka, tutqunlikdan ozodlikka o'tishning poetik ifodasidir. "The Gift" va "I Will Greet the Sun Again" she'rlari o'rtasidagi kontrast Forug' ijodiy yo'lining ikki qutbini — chuqur tushkunlik va ruhiy tiklanishni — yorqin aks ettiradi, bu esa uning she'riyatini statik emas, balki dinamik, transformatsion jarayon sifatida o'qishga imkon beradi.

Forug' she'riyatida tabiat unsurlarining ramziy tizimi

Forug' Farrohzod she'riyatini yaxlit tizim sifatida o'rganganda, tabiat unsurlarining takrorlanuvchi, o'zaro bog'liq ramziy tarmog'i ko'zga tashlanadi. Quyosh, oy, daraxt, suv, shamol va qush kabi obrazlar shoira ijodida deyarli har bir she'rda uchraydi, biroq ularning semantik yuki kontekstga qarab tubdan o'zgaradi. Yuqorida ko'rib chiqilgan "Reborn" she'rda shamol ayriliq va o'zgarish kuchi sifatida ishlaydi. "I Will Greet the Sun Again"da suv obrazi endi "oqim" (stream) shaklida ichki hayotiylik va yangilanish kuchiga aylanadi. Forug' poetikasining muhim xususiyati shundaki, bir xil tabiat unsuri turli she'rlarda qarama-qarshi funksiyalarni bajarishi mumkin va aynan shu ko'p qatlamlilik uning ramziy tilini statik emas, balki dinamik va kontekstga bog'liq qiladi.

Forug' Farrohzod she'riyatida vaqt kategoriyasi chiziqli emas, balki doiraviy va qatlamli tarzda quriladi. Tahlil

qilingan she'rlarning barchasida o'tmish, hozirgi zamon va kelajak bir-biriga singib ketadi: "Reborn"da o'tmishdagi "beg'ubor qiz" hozirgi lirik "men" bilan bir vaqtda mavjud bo'ladi; "I Will Greet the Sun Again"da kelajak allaqachon boshlangan jarayon sifatida tasvirlanadi. Bu xotira va orzu-umidning bir-biriga chirmashib ketishi fors mumtoz she'riyatidagi "abadiy hozirgi zamon" tushunchasi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, biroq Forug'da bu struktura endi metafizik emas, balki chuqur psixologik ma'noga ega: u shaxsning travma va tiklanish jarayonidagi vaqt idrokini aks ettiradi.

Darznik romanida qo'llanilgan o'n yettita iqtibos tasodifiy tanlanmagan, balki Forug' poetikasining uch bosqichli strukturaviy modeliga muvofiq tarzda tanlab olingan. Bu holat intertekstuallikning shunchaki bezakli emas, balki kompozitsion-strukturaviy funksiyaga ega ekanligini isbotlaydi: she'riy matn romanning ichki arxitektonikasini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanadi.

Forug' she'riyatida ramziy obrazlar: "I Feel Sorry for the Garden" va "A Poem for You" tahlili

Forug' poetikasining ramziy tili yana ikkita she'r misolida yaqqol namoyon bo'ladi — "I Feel Sorry for the Garden" ("Bog'ga achinaman") va "A Poem for You" ("Senga bag'ishlangan she'r"). Har ikkala matnda ham tabiat va uy-ro'zg'or obrazlari sof tasviriy vosita bo'lishdan chiqib, shoiraning ichki holatini ifodalovchi ramziy tizimga aylanadi.

"I Feel Sorry for the Garden"da bog' obrazi markaziy o'rin tutadi, biroq bu hayot va gullashning an'anaviy ramzi emas, aksincha, yemirilish va sukunatning timsolidir: bog' o'simliklari so'lgan, hovuz suvi harakatsiz va loyqa, qushlar sadosi eshitilmaydi. Harakatsiz hovuz obrazi turg'unlik va ruhiy o'lik holatni ifodalasa, so'lgan gullar vaqt bilan yo'qolgan go'zallik va umidni anglatadi. Bog'ning o'zi esa kengroq ma'noda jamiyatning ichki holatiga — tashqi tartib ostida yashiringan ma'naviy tanazzulga — ishora qiluvchi ramzga aylanadi. Shu bilan birga, she'r nomining aynan "achinish" fe'li bilan bog'lanishi lirik "men"ning bu yemirilishga passiv kuzatuvchi emas, balki og'riqli hamdard sifatida munosabatda bo'lishini ko'rsatadi.

"A Poem for You" she'rida esa ramziy tizim boshqacha yo'nalishda quriladi: alla janriga xos ohang — "oxirgi alla" — onalik mehri bilan ayriliq og'rig'ini bir vaqtning o'zida ifodalaydi. "Shamol" va "yoshlik shabadalari" obrazlari orqali shoiraning faryodi jismoniy makondan tashqariga chiqib, tutib bo'lmaydigan, tarqalib ketuvchi kuchga aylanadi — ovozning yo'qolishi emas, balki uning erkin, ammo yetib bo'lmas holatga o'tishini anglatadi. Beshik obrazi an'anaviy ravishda xotirjamlik va himoya ramzi bo'lsa-da, bu she'rda u vidolashuv maydoniga aylanadi: himoya va ayriliq bir obrazda birlashadi. Shu tariqa ikkala she'r — bog' va alla — turli obrazlar orqali bitta umumiy g'oyani ifodalaydi: yo'qotish har doim ham ochiq fojia shaklida emas, ko'pincha jimgina, sekin-asta, tabiat va kundalik obrazlar libosida yuz beradi.

Yakuniy tahlilda shuni ta'kidlash joizki, "I Feel Sorry for the Garden" va "A Poem for You" she'rlaridagi ramziy tizim — bog', sukunat, rang, vaqt, shamol, beshik — Forug' she'riyatining umumiy poetik strukturasidan uzilib qolmaydi, balki uni to'ldiradi. Agar "Reborn" va "I Will Greet the Sun Again" yo'qotish va yangilanish dialektikasini optimistik ohangda yakunlasa, ushbu ikki she'r xuddi shu dialektikaning og'riqliroq, murakkabroq qatlamlarini ochib beradi: yo'qotish har doim ham yangilanish bilan tugamaydi, ba'zan u shunchaki tan olinadi, jimgina yashab qolinadi. Aynan shu xilma-xillik — bir tomondan umid, ikkinchi tomondan sukut — Forug' Farrohzod she'riyatini statik emas, balki ko'p ovoqli, ichki ziddiyatlarga boy badiiy dunyo sifatida namoyon etadi.

"I Feel Sorry for the Garden"da fazoviy tashkillanish ham ramziy ahamiyat kasb etadi. Bog' devor bilan o'ralgan, yopiq makon sifatida tasvirlanadi va aynan shu yopiqlik uning tashqi dunyodan ajralib qolgan, o'ziga xos "kichik olam"ga aylanishini ta'minlaydi. Devor bir tomondan himoya vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan makonni tashqi hayotdan, yangilanish imkoniyatidan mahrum qiladi. Shu tariqa bog' obrazi Forug' she'riyatida keng tarqalgan yopiq va ochiq makon dixotomiyasining yorqin namunasiga aylanadi: yopiq makon xavfsizlik va turg'unlikni, ochiq makon esa xavf va erkinlikni bir vaqtning o'zida anglatadi.

She'rdagi lirik "men"ning pozitsiyasi ham diqqatga sazovor. Shoir bog'ni tashqaridan kuzatuvchi begona sifatida emas, balki uning bir qismi, uning taqdiriga sherik sifatida tasvirlaydi. "Achman" fe'lining birinchi shaxsda qo'llanilishi shuni ko'rsatadiki, bog'ning yemirilishi shoir uchun faqat estetik kuzatish emas, balki shaxsiy, deyarli tanaviy tajribadir. Bu identifikatsiya — inson va tabiat, shaxs va makon o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi — Forug' poetikasining o'ziga xos xususiyati bo'lib, unda tashqi olam doimo ichki kechinmalarning davomi sifatida idrok etiladi.

"A Poem for You" she'rida esa jismoniy va ovoqli obrazlar o'rtasidagi munosabat alohida e'tiborga loyiq. Alla janrining o'zi an'anaviy ravishda ovoz orqali amalga oshiriladigan, jismoniy yaqinlikni talab qiluvchi janr hisoblanadi: ona farzandini quchoqlab, uni tinchlantirish uchun kuylaydi. Biroq bu she'rda alla o'z an'anaviy vazifasidan chetga chiqadi: u endi tinchlantirish emas, balki alvido aytish vositasiga aylanadi. Ovoz jismoniy yaqinlikning o'rnini bosadi, chunki jismoniy aloqa endi imkonsiz bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, she'r ovozning jismoniy mavjudlikni to'ldira olishi, ammo hech qachon uni to'liq almashtira olmasligi haqidagi chuqur kuzatuvni ham o'zida mujassam etadi.

Ikkala she'rni birga tahlil qilganda, ularning har biri Forug' she'riyatidagi yo'qotish tajribasining alohida bir bosqichini yoritishini kuzatish mumkin: "I Feel Sorry for the Garden" yo'qotishning hali to'liq anglanmagan, tabiat tasviri ortida yashiringan ilk shaklini, "A Poem for You" esa uning ochiq, so'z bilan ifodalangan, farzand bilan bevosita bog'liq yakuniy shaklini aks ettiradi. Ushbu ikki bosqich o'rtasidagi harakat — yashirin iztirobdan ochiq faryodgacha — Forug' ijodiy yo'lidagi umumiy tendensiyaning, ya'ni shaxsiy tajribaning asta-sekin she'riy so'zga, so'ngra ochiq ijtimoiy ovozga aylanib borish jarayonini ham o'zida aks ettiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Forug' Farrohzod she'riyati boy ramziy tizim, chuqur emotsional kuch va o'ziga xos poetik strukturaga ega. Uning markazida qayta tug'ilish, tutqunlik va ozodlik dialektikasi, tabiat unsurlarining ko'p qatlamli ramziy tili kabi o'zaro bog'liq motivlar joylashgan. Forug' ijodi bir tomondan fors mumtoz an'anasidan ramziy til boyligini

meros qilib olsa, ikkinchi tomondan zamonaviy, shaxsiy-ijtimoiy erkin she'r uslubiga o'tadi. Uning she'riyatidagi vaqt chiziqli emas, balki qatlamli tarzda qurilib, o'tmish, hozirgi zamon va kelajakni bir-biriga singdiradi. Forug' she'riyatini mustaqil tadqiq etish, shuningdek, uning boshqa mualliflar ijodida qanday qayta talqin etilishini o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslik uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farrokhzad F. Sin: Selected Poems of Forugh Farrokhzad / translated by Sholeh Wolpé. – Fayetteville: University of Arkansas Press, 2007. – 134 p. – ISBN 978-1-55728-861-5. – DOI: 10.2307/j.ctt1ffjm51. – URL: [JSTOR – Sin: Selected Poems of Forugh Farrokhzad](#)
2. Darznik J. Song of a Captive Bird: A Novel. – New York: Ballantine Books, 2018. – 401 p. – ISBN 978-0-399-18231-0. – URL: [Google Books – Song of a Captive Bird](#)
3. Hillmann M. C. A Lonely Woman: Forugh Farrokhzad and Her Poetry. – Washington, D.C.: Mage Publishers; Three Continents Press, 1987. – 181 p. – ISBN 0-934211-11-6. – URL: [WorldCat – A Lonely Woman](#)
4. Milani F. Veils and Words: The Emerging Voices of Iranian Women Writers. – Syracuse, N.Y.: Syracuse University Press, 1992. – 318 p. – ISBN 978-0-8156-0266-8. – URL: [Syracuse University Press – Veils and Words](#)
5. Milani F. Forugh Farrokhzad: A Literary Biography with Unpublished Letters. – Toronto: Persian Circle, 2016. – 550 p. – URL: [University of Virginia – Forugh Farrokhzad: A Literary Biography with Unpublished Letters](#)
6. Showalter E. Toward a Feminist Poetics // Women Writing and Writing about Women / ed. by Mary Jacobus. – London: Croom Helm, 1979. – P. 22–41. – URL: [Routledge – Women Writing and Writing about Women](#)
7. Rich A. Of Woman Born: Motherhood as Experience and Institution. – New York: W. W. Norton & Company, 1976. – 318 p. – ISBN 978-0-393-08750-5. – URL: [Google Books – Of Woman Born](#)
8. Mannani M. Forough Farrokhzad's Poetry and the Reader's Experience // Crossing Boundaries: An Interdisciplinary Journal. – 2001. – Vol. 1, No. 1. – P. 49–64. – URL: [Athabasca University Research Portal](#)
9. Genette G. Palimpsests: Literature in the Second Degree / translated by Channa Newman, Claude Doubinsky. – Lincoln; London: University of Nebraska Press, 1997. – 490 p. – ISBN 978-0-8032-2168-0. – URL: [University of Nebraska Press – Palimpsests](#)